BOSHLANG'ICH SINFLARGA MATEMATIKA FANIDAN ARIFMETIK AMALLARNI O'RGATISH USULLARI.

Atenov Jandarbek Dayrabay og'li
Toshkent amaliy fanlar universiteti
V.B dotsenti

Imomova Feruza Ulug'bekovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Pedagogika" fakulteti 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23833166

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan arifmetik amallarni ya'ni qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish kabilarni o'rgatishni eng samarali, tushunarli va qiziqarli usullar bilan yoritib berilgan.Hozirgi paytga kelib, ba'zi maktablarda darslarni oldingi yillardagi eski metodlardan foydalanish, jadvallar, qoidalar va formulalarni shunchaki yodlatish bolalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini susaytirishi va yetarlicha tushunmay qolishida sabab bo'lishi tanqidiy tahlil qilingan. Shu sababli, bolalarga qoidalarni quruq yodlatish o'rniga, ularni rasm va o'yinlar orqali tushuntirish, xatolarni birgalikda tahlil qilib topish kabi yangicha usullar yoritilgan.

Kalit so'zlar:boshlang'ich ta'lim, arifmetik amallar, arifmetik amallar, o'yinli usullar, rasmli ko'rgazmalar, mantiqiy fikrlash.

Kirish

Bolalar hayotidagi eng muhim va kerakli bo'lgan bosqichlardan biri bu- boshlang'ich ta'lim davridir. Aynan ushbu davrda bolaning kelajagiga o'qishiga,tafakkur qilishiga, mustaqil fikrlashiga va dunyoqarashiga qadam qo'yiladi. Matematika fani esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish qobiliyatini rivojlanishi va mustaqil o'zi qaror qabul qilish ko'nikmalarini takomillashtiruvchi eng asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Matematikaning asosiy qismi esa arifmetik amallar-qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirishni chuqur o'zlashtirishdan iborat.

Ammo, pedagogik tajriba va amaliyot shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirish jarayonida bir qator qiyinchiliklar uchraydi. Ko'p hollarda ba'zi o'qituvchilar va ota-onalar bolalarga qoidalarni, misol-masalalarni, ko'paytirish va bo'lish jadvallarini (karra jadval)ni yodlab olishlarini talab qilishadi. Quruq yodlashdan iborat ta'lim esa o'quvchilarning qiziqishlarini pasaytirib, ularning miyyasining tezda toliqishiga sabab bo'lishi mumkin, hattoki matematikaga nisbatan qo'rquv va o'rganishni xohlamaslik holatiga olib keladi. Balki bola qo'shish, ayirish misollarini ishlashi mumkin ammo unda yaxshi tushuncha bolmaganligi sababli "Nega aynan shunday chiqdi?" savoliga javob topa olmaydi, ya'ni arifmetik amalning tub mohiyatini anglab yetmaydi.Bu holatda esa o'quvchi keying sinflarga o'tganda murakkabroq misollar: kasrlar, sistemali tenglamalar va matnli masalalar mavzusida o'zlashtirishga qiynalib, jiddiy tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogika va kognitiv psixologiya fanlari bolalar ma'lumotni faqatgina matn yoki raqamlar shaklida emas, balki obrazli, ko'rgazmali va amaliy harakatlar orqali

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tezroq hamda samarali o‘zlashtirishi kutilmoqda.Shuning uchun, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darsga puxta tayyorgarlik ko‘rib, darsni jonli, qiziqarli, turli xil mavzuga oid metodlardan foydalangan holatda, interaktiv usullar va bolaning tasavvuriga keltira olishi uchun hayotiy misollardan foydalanishi kerakdir.Masalan, o‘quvchilarga karra jadvalni shunchaki yodlashi kerakligini aytgandan ko‘ra, uni kundalik buyumlaridan foydalangan holatda sanash, yoki voqealar orqali ham o‘rgatish mumkin, yoki qiziqarli o‘yinlardan foydalanish bolalarning qiziqishi orqali ma’lumot uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga arifmetik amallarni o‘rgatishda eski formatdagi usullar, zerikarli, yoshiga mos kelmaydigan mavzular va faqat yodlashga asoslangan yondashuvlardan voz kechib, bolalarning qiziqishini oshiradigan, ularni mustaqil fikrlashi uchun yengil, tushunarli, aniq va qiziqarli usullarni amaliyotga joriy etish zarurati bilan joriy qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanidan arifmetik amallarni o‘rgatish – bu shunchaki raqamlarni yoki jadvallarni yodlatish emas, balki bolaning mantiqiy dunyoqarashiga ilk imkon yaratib berishdir. Mening nazarimda, agar bolaga darsda quruq qoidalar va zerikarli misollarni majburlataversak, uning fanga bo‘lgan mehrini asta-sekin so‘ndirib qo‘yamiz. Aksincha, har bir arifmetik amalni uning kundalik hayoti, o‘yinlari va ko‘rgazmali buyumlar bilan bog‘lab tushuntirsak, ishonchim komilki, bolaning ko‘zlari yonib, o‘zi izlana boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘raev R. va boshqalar. Boshlang‘ich ta'lim innovatsion texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Bikbaeva N.U. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Skvortsova S.A. Metodika obucheniya matematike v na-chalnoy shkole. – Moskva: Prosveщenie, 2020.
4. Qosimova M. Matematika darslarida interfaol usullardan foydalanish samaradorligi. "Xalq ta'limi" jurnali, 2023-yil, 2-son.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.